

**MAYORAN O'SIMLIGINI BIOLOGIYASI, FOYDALI HUSUSIYATI  
VA YETISHTIRISH TEKNOLOGIYASI**

*Jahbaraliyev Qudratillo Raxmatillo o'g'li  
Saksonboyeva Mushtariy Lochinbek qizi  
To'xtasinova Rayxonkul Avazbek qizi  
Bekmirzayeva Gulxayo Mirzohodjon qizi*

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabalari*

**Anotatsiya.** Maqolada mayoran o'simligining kelib chiqishi, yashash sharoyiti, ko'payish usullari, marfalogiyasi hamda anatomiyasi va shuni ham ta'kidlab o'tishimiz kerakki dorivor o'simlik bo'lganligi sababli jahon miqyosida juda katta e'tiborga ega o'simliklar ekanligi to'g'risida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar.** Mayoran qovoqdoshlar oilasi, gul, meva, urug', barg.

*Melothria scabra*, Qovoqdoshlar (*Cucurbitaceae*) oilasiga mansub. Geografik tarqalishi. Afrika, AQSh, Yevropa, Yaponiya, Rossiyada keng tarqalgan.

**Biologiyasi.** O'simlikni o'sib-rivojlanishiga +20+24°C harorat zarur bo'lib, yosh niholli ko'chatlari +10°C, katta shdag'i o'simliklari +15°C haroratda ham o'sadi. Melotriya bir yillik, 3 m lik asosiy poyada ko'plab yon shoxchalar shakllantiradigan o'tsimon o'simlik. Barglari o'tkir va uchburchak shaklli, mevalar kichik, uzunligi 1,5-2,5 sm, odatda och yashil rangda bo'ladi. Barglari bodring barglariga o'xshaydi, faqat kichikroq. Yorqin sariq gullari ikki jinsli: onalik guli alohida, otalik guli bir joyda bir nechtadan to'plangan.

Melotriya may oyidan boshlab to sovuq kunlar tushgunigacha gullab meva tugadi. Barglari bodring barglariga qaraganda yashil rangini kech kuzgacha saqlab qoladi. Melotriya o'simligini palagi juda ham baquvvat rivojlanadi.

Meva bilan bir qatorda, o'simliklar 300-400 gr gacha bo'lgan ildiz tiganaklar hosil qiladi, shakli va ta'mi bo'yicha ular batatga o'xshaydi. Mevalar juda tez pishadi, shuning uchun ularni har kuni terish kerak. Ko'paytirish usuli. Urug'dan ko'chat usulida yoki ildiz tiganaklari orqali yetishtiriladi.

Xususiyatlari va qo'llanilish sohasi. Mevasi uzunchoq, vazni 10 gr bir tupdag'i hosili 4-5 kg, shuningdek, 400 grammgacha ildiz tiganak shakllantirib, tir tupdan 1,5 kg tiganak hosil beradi.

Oziq-ovqat sanoatida nafaqat mevasini, balki tiganagidan ham foydalanish mumkin. Tiganagining ta'mi bodring va rediska ta'mlariga o'xshash. Ularni asosan salatlarga qo'shiladi. Melotriya mevasini xomligicha, marinadlangan va tuzlangan holda ishlatish mumkin. Melotriya mevasining kimyoviy tarkibiga: oqsillar, uglevodlar, kletchatka, vitaminlar (V9 va S) va minerallar (kaliy, kalsiy, magniy,

natriy, fosfor, temir) kiradi.

Melotriyani muntazam ravishda iste'mol qilish oshqozon osti bezini faoliyatini yaxshilashga yordam beradi. Melotriya mevasining kaloriyasi (100 gr mevasi tarkibida 14 kkal mayjud) juda ham past bo'lib, parhezbop ekin hisoblanadi. Bundan tashqari u tanaga tez singadi. Melotriya odam organizmidan ortiqcha suyuqlikni chiqaruvchi ekin turidir. Ushbu xususiyatni inobatga olgan holda, bu sabzavotni tana shishishiga moyil bo'lган insonlarga iste'mol qilish tavsiya etiladi. Melotriya mevasini muntazam ravishda iste'mol qilish qon bosimini normallashtiradi. Meva tarkibida kletchatka mavjudligi sababli u organizmdan ortiqcha xolesterinni chiqarishga yordam beradi. Melotriya mevalari qabziyatda eng yaxshi profilaktik vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. 1 ga ekin maydonida urug' hajmi va qiymati. Har 1 gektarga ochiq maydonga ekish uchun urug' sarfi 4,5-5,5 kg/ga urug' hisobida sarflanadi.

Parvarishlash. Melotriyani yetishtirishda urug'dan va ko'chatdan ekish mumkin. Bahorgi mavso'mda melotriya ko'chatlarini yetishtirish uchun kattaligi  $10 \times 10$  sm bo'lган kasseta, torf yoki polimer tuvakchalardan foydalaniladi. Ko'chatlarni tayyorlashga fevral oyining oxirida va mart oyining birinchi o'n kunligidan kirishiladi. Melotriya ko'chatlarini makro- va mikroog'itlar bilan to'yintirilgan torfda yetishtirish yaxshi natija beradi. Bunda mineral o'g'itlardan foydalanmasa ham bo'ladi.

Bir tekis va to'liq ko'chat olish uchun ekiladigan urug'liklar sifati I sinfdan past bo'lmasligi, dalada unish darajasi 90% va undan yuqoriroq, unib chiqish kuchi ham yuqori darajada bo'lishi talab etiladi. Har bir tuvakchaga 1-2 donadan urug' ekiladi. Urug'lar unib chiqqandan keyin 16-20 kun o'tgach, tuvakchalar yoyib qo'yiladi. Bunda har  $1\text{ m}^2$  joyga 250-300 tupdan ko'chat joylashtiriladi. Ko'chatlar yorug'likdan yaxshi bahramand bo'lishi uchun shunday qilinadi. Kasallangan, shikastlangan, nimjon ko'chatlarning o'rniga ekiladigan ko'chatlarni (15-20%) oldindan zaxira qilib qoldirish zarur.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki mayoran o'simligi inson organizmini uchun zarur bo'lган vitaminlarga boy hamda vazin ortishiga sababchi bo'lmasligi va organizimdagi ortiqcha suv kabi zararli moddalarni chiqarib yuborishga yordam beradi. Ya'ni organizimni tozalovchi hamda dorivor hususiyatlarini o'rgandik.

### Adabiyotlar ro'yxati

1. Ma'ruza matn "Noananaviy ekinlar seleksiyasi va urug'chikigi" AQXAI 2023-yil 20-21-b.
2. Egamov X., Abdumalikov U., Zaparov Z., Tillaboev A., Toshpo'latov A. Yaratilgan yangi g'o'za tizimlarining xo'jalikka foydali belgilarini aniqlash. Innovatsiya: fan, ta'lim, texnologiya. Ilmiy-uslubiy maqololar to'plami. Сборник научно методических статей №1. Andijon. 2018 y. 121-123-b.
3. Мирахмедов Ф.Ш., Абдумаликов У.З., Абдумаликов И., Тиллабоев А.

Минеральные удобрения и их рациональное применение на орошаемых землях Узбекистана // Интегратционные процессы мирового научно-технологического развития, Белгород, 2017. С. 19-21.

4. Кимсанов И.Х, Кодиров О.А, Рахимов А.Д, Абдумаликов У.З. Изучение морфологических и хозяйствственно-сенных признаков новых сортов хлопчатника в условиях андижанского вилоята// Приоритеты инновационно-технологического развития в условиях глобализации, Белгород, 2019. С. 24-27.